

**QAZUVCHI-YUKLOVCHI MASHINALAR ISHCHI
A'ZOLARINING VAQT DAVOMIDA YEMIRILISHINIG ISH
SAMARADORLIGIGA TA'SIRI**

Muborakzanova Dilafruz Ravilovna

NDKTU 123M-23KMJ guruhi magistratura talabasi


Turdiyev Sardorjon Abdumuminovich

“Konchilik elektr mexanikasi” kafedrası dotsenti

Qazish - yuklash vaqtida kon mashinalarining ishchi a'zolarining geometrik parametrlarining o'zgarishi tog' jinsini kesish jarayoniga sezilarli ta'sir qiladi, bu esa kesish elementining emirilishi va o'tmaslashishidan tog' jinsi qarshiligining sezilarli darajada oshishini ko'rsatadi. Shu sababli, yemirilish va o'tmaslashishni oldini olish bo'yicha chora-tadbirlar ish sharoitlarini sezilarli darajada yaxshilashi va qazish-yuklash mashinalarining unumdorligini oshirishi mumkin [1].


Ma'lumki, ekskavatorlarning ishlashi ishchi a'zosining konstruktiv mukammalligi bilan belgilanadi va uning kesish elementlarining yemirilish miqdori bilan bevosita bog'liq. Ko'pgina tadqiqotlar shuni ko'rsatdiki, kesish elementlari o'tmas bo'lganda, tog' jinsini massivdan ajratishning energiya intensivligi 60 ... 100% ga oshadi va bu holda mashinaning unumdorligi 10...40% ga kamayadi [2].

O'lchovlar tog'ri kurakli qazish uskunalari bilan jihozlangan HITACHI EX-1200 rusumli karyer gidravlik ekskavatorlarida (6 tishli 6,9 m³ hajmli cho'mich) amalga oshirildi. Olingan o'lchov ma'lumotlari va aniqlangan o'rtacha qiymatlar 2-jadvalda keltirib ko'rsatilgan.



1-rasm. Ekskavator cho`michi tishining yemirilish joylarini aniqlash sxemasi

Tadqiqot natijalar asosida olingan ma`lumotlardan ekskavator cho`michi tishlarining ma`lum vaqt davomida ishlaganini uning proyeksiyalari va tishning uzunliklari bo`yicha bog`liqligi 2-rasmda o`rnatildi.



2-rasm. Ish vaqti davomiyligi, kordinata va uzunliklari bo`yicha yemirilish miqdorlarining o`zaro bog`liqlik grafigi: z – tishning o`tmashlashish bo`yicha proyeksiyasi; y – tish asosi bo`yicha proyeksiyasi; T – ish vaqti davomiyligi.

Yuqoridagi grafikdan ko`rinib turibdiki, ish vaqtining dastlabki 3-4 smenasida cho`mich tishining keskin yemirilishi mavjud, keyin yemirilish jarayoni biroz sekinlashadi. Bu tishning o`z-o`zidan keskinlashtiruvchi ta`siriga bog`liq bo`lishi mumkin. IV, V va undan yuqori toifadagi tog` jinslari mustahkamligi oshganligi sababli eng yuqori yemirilish qobiliyatiga ega. Tog`

jinslarining yemirilish qobiliyati nafaqat o'tmaslashish maydonining (y, sm) shakllanishiga, balki tishning sezilarli darajada to'mtoqlanishiga ham olib keladi. Maksimal o'tmaslashishga erishilganda tishdan foydalanish iqtisodiy jihatdan maqsadga muvofiq emas deb hisoblanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Щербаков В.С. Научные основы повышения точности работ, выполняемых землеройно-транспортными машинами. Автореферат диссер. докт. техн. наук, Омск – 2000. - С. 39.
2. Волков Д.П., Густов Ю.И., Шукуров Р.У. Износостойкие зубья землеройных машин для Средней Азии // Строительные дорожные машины, М., 1987. №10. – С. 8-10.